

Ona yurti - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№29 (66362)
2002 yil
15 iyul,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

Yozgi ta'tilda bizga mazza-da. Bo'sh vaqtimiz serob. Yana, ayni pishiqchilik davri.

Har galgidek bu yil ham ta'tilning birinchi oyini so'lim oromgohlardan birida o'tkazdim. Ukajonim Abdullo ikkimiz Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi «Gagarin» nomli oromgohda bo'ldik. U yerning qandayligini tasvirlay desam, so'z topolmayapman. So'lim, salqin, xushmanzara maskan. O'tgan yili ham bu yerga kelgandik. Har kelganimizda qadrdon do'stlarimiz bilan uchrashamiz, yangi do'stlar ortiramiz. Bu yil ham Suhrob va Behzod ismli bolalar bilan tanishib, do'stlashib oldik. O'tgan yili do'stlashgan qadrdon do'stlarimiz boshqa guruhlarda bo'lishsa-da, ular bilan hamisha birgamiz. Har bir kunimiz ajoyib taassurotlarga boy bo'ldi. Yetakchimiz boshchiligida barcha tadbirlarga, sport bellashuvlariga faol qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdik. Har kuni yangi-yangi kinofilmlar tomosha qildik. Dam olish soatlaridagi o'yin-kulgularni aytmayizmi?! Ukajonim Abdulloning yaxshigina o'yinchi ekanligini ham shu yerda

bilib oldim. Lotin alifbosidagi kitoblarga boy kutubxona ham bizning ixtiyorimizda bo'ldi. Do'stlarimiz bilan

Xayrlashuv kechamizda yoqilgan gulxanimizning alangasi osmonu falakni

yildan so'ng barchamiz shu oromgohda ko'rishishga kelishib, uyga qaytdik. Oromgoh


bilan sira xayrlashgimiz kelmasa-da, oyijonimizni juda sog'inib qolganimiz

bois uyga oshiqdik. Ayniqsa, ukajonimni juda sog'inagan ekan, o'zini ularning bag'rlariga otib, hecham ajralgisi kelmadi. Atigi bir necha kun ichida bir-birimizni shunchalar sog'inib qolibmiz. Ta'tilning qolgan qismini oyijonimga uy yumushlarida ko'maklashish bilan o'tkazamiz. Axir biz dam olib yurganimizda oyijonim ham ishlab, ham uy yumushlarini bajarib, charchab qolganlar-da. Oromgoh haqidagi maroqli hikoyamizni oyijonim zavqlanib tingladilar, surat orqali yangi do'stlarimiz bilan ham tanishdilar. Agar aqlli bola bo'lsak, faqat «a'lo» baholarga o'qisak, kelasi ta'tilda ham yana shu oromgohda dam olishga borishimizni aytdilar.

Yanagi yilda uchrashguncha xayr oromgoh, xayr mening do'stlarim!

*Xabibullo
ABDULLAYEV,
Toshkent shahar,
Sobir Rahivov
tumanidagi 46 -maktab
o'quvchisi.*

SALOM TOG'LAR!



tog' yon bag'irlariga sayohatlarga chiqib; tabiatning nozune'matlaridan bahramand bo'ldik, esdalik uchun suratlariga ham tushdik...

tutib yubordi. Yetakchimiz, tarbiyachilarimiz biz bilan yig'lab xayrlashishdi. Ularning ko'z yoshlarini ko'rib biz ham o'zimizni tutib tura olmadik. Yana bir

Ta'til qanday o'tyapti?

- Oromgohimizda bolajonlar uchun barcha sharoitlar yetarli, deydi bosh yetakchi Zamiraxon Jalilova. - Har bir guruh o'z yetakchisi va tarbiyachisi boshchiligida ko'plab tadbirlarni, sport musobaqalarini uyushtiradilar.

Yetakchilardan Shohidaxon Yusupova, Mirzabek Ashurov, Muborak Dadaxo'jayeva, Muyassarxon Madazimovalar rahbarligidagi guruh bolalari barcha tadbirlarda faol.

Bundan tashqari, Nukus shahridagi 2- maktabning ximiya va biologiya o'qituvchisi Ubayda Xojimurodova,

Qo'ng'irot shahridagi 50-

maktabning ingliz tili o'qituvchisi Guli Yeshimbetovalar boshqarayotgan guruhlarda ham tarbiyaviy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan.

- Oromgohimizga barcha kerakli dori-darmonlar keltirilgan,- deydi oromgoh shifokori Hanifaxon Gdilova. - Oromgohda dam olayotgan har bir bolaning sog'lig'i tekshiruvdan o'tkazildi. Ularni yanada sog'lomlashtirish uchun ko'proq sportga jalb qilyapmiz. Taomlarini nazarot qilib turamiz. Bolalarga bir kunda uch

mahal issiq ovqat, bir mahal nonushta beriladi. Biz taomlarning sifati, to'yimliliigi uchun javobgarmiz.

Oromgohdagi «Jajji bahodir», «Oq terakmi, ko'k terak», «Ertaklar yaxshilikka yetaklar», «Balli yigitlar» kabi musobaqalar guruh bolalariga yaxshi tanish.

Shuningdek, «Oq kabutar», «Do'stlik», «Gap yo'q», «Lochin», «SHo'x qizlar» kabi devoriy

Andijon- soyning yaqinida «Qaldirg'och» deb nomlangan bolalar oromgohi joylashgan. Oromgoh har mavsumda 250-300 nafar bolajonlarni o'z bag'riga oladi.

Ushbu oromgohda Andijon shahridagi chit fabrikasi xodimlarining farzandlari dam oladilar.

Bundan tashqari, har mavsumda 100 nafar Orolbo'yi bolalari ham sog'lomlashtiriladi.

G'oyipov boshqarayotgan futbol, voleybol, basketbol to'garaklarida ham bolalar

gavjum.

Zarifjon Baxoviddinov

rahbarlik qilayotgan raqs, she'rxonlik, xor, ashula kabi to'garak a'zolari esa har bir tadbirlarda o'z dasturlarini namoyish qilib, atrofdagilarga quvonch ulashadi.

Shu bilan birga Andijonning xushmanzara joylariga sayohat qiladilar, ziyoratgohlariga boradilar.

YAqinda oromgoh bolalari «Bog'i Bobur», «Bolalar bog'i» ga sayohat qilishdi. U yerdan olgan taassurotlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashishdi.


Oromgohdagi kinozal ham bolajonlar ixtiyorida. Kinozalda ularbop kinofilmlar ko'rsatiladi. So'ngra muhokama qilishadi. Ijobiy va salbiy obrazlar ustida o'z fikr va mulohazalarini bildirishadi.

Andijonlik bolalar qoraqalpog'istonlik tengdoshlari bilan tezda til topishib ketishdi. Bir-birlaridan o'rganishdi va albatta bilganlarini o'rgatishdi.

Xullas, «Qaldirg'och»dagi bolalarning zerikishlariga imkon yo'q. Bekorchilikka yo'l yo'q.

Jaloliddin TURDIYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

BEKORCHILIKKA YO'L YO'Q!



gazetalarning o'z muxlislari bor. Bolalar qiziqish, intilish bilan o'zlari tanlagan devoriy gazetalarini chiqaradilar.

Bundan tashqari, Mo'minjon



Kitob o'qishni unitmadingizmi?

Oromgohda Mirvali ismli pakana, oriq, chaqchaygan ko'zli bola yoqmadi. O'zinga o'xshagan futbol «jinnisi» ni topib, kechgacha mazza qilib koptok tepib yurgan edim.

Bir kuni koptok kutubxonadan bir dasta kitob qo'litiqlab chiqqan Mirvalining yelkasiga tegib ketdi.

- Oromgohga faqat koptok tepgani kelganmisan?

- O'zingchi, - bo'sh kelmadim, - faqat kitob o'qigani kelganmisan?

- Har narsaning o'z vaqti bor, oshna, - Mirvali ichkariga kirib ketdi. Gapi

alam qildi, o r q a s i d a n qichqirdim:

Hammamiz o'ylanib qoldik. Birov u dedi, birov bu dedi. Ammo hech kim aniq javob bermadi.

Agar siz Abu Ali ibn Sino nashriyotida chop etilgan A.Qodirovning «O'zbekistonda tibbiyot tarixi» kitobi bilan tanishib chiqsangiz, o'zingizni qiziqtirgan savollaringizga javob topasiz. Bekorga kasal bo'lmaysiz. Tibbiyotga oid qiziq-qiziq voqealarni bilib olasiz.

Savolimga o'zim javob beraman. Farg'ona viloyatining Janubidagi g'ordan va Ohangaron tumanidan antropoidlar suyaklari topilgan. Olimlarning



BILAG'ON MIRVALI



- Akademik...

- Kitobni qiz bola ham o'qiydi, - dedi sherigim yonimga tushib, - o'g'il bola bo'lsang biz bilan tepishib ko'r. Bitta to'p tepaman deb dumalab tushasan.

Ko'p o'tmay kutilmaganda Mirvali chiqib keldi.

- Mayli, - dedi va darvozabon bo'ldi. Kichkina bo'lishiga qaramasdan chayir ekan. Bironta ham to'pni o'tkazmadi.

- Gal menga keldi. Darvozabon bo'ldim. Yo tavba, Mirvali to'pni shunaqa tepdiki, o'zim ham unga qo'shilib darvozaga kirib ketdim. Balo ekan.

Shu kundan boshlab barchamiz Mirvalini yaxshi ko'rib qoldik. Buning ustiga bilag'onligini aytmaymizmi? Hamma narsani biladiya.

Bir kuni guruhimizdagi Sherzodning tobi qochib qoldi. Oromgoh shifokori yetib kelgunga qadar meditsinaga doir qiziq narsalarni gapirib berdi.

- Xo'sh, - dedi hamma uni tinglayotganini bilib, - O'zbekistonda tibbiyot qachon paydo bo'lgan?



ay t i s h i c h a Selungurdda topilgan antropoid bundan 800-700 ming yil ilgari yashagan. Demak bizning tibbiyot bundan 800 ming yillik tarixga ega ekan.

Men bu ma'lumotlarni ana shu kitoblardan bilib oldim.

Shuningdek, «Inson a'zolari» turkumida A. Zohidiyning «Yurak», «Buyrak», «Oshqozon», «Jigar» kabi a'zolar faoliyati haqida maktab o'quvchilariga ham tushunarli tarzda hikoya qilingan.

Kitobni o'qir ekansiz, odam anatomiyasiga oid bilim doirangiz kengayib borishiga shubha yo'q. Shunda har qanday kasallikning oldini olishga o'rganasiz.

Aziz o'quvchilar, yozgi ta'tilda xoh uyda dam oling, xoh oromgohda bo'ling, albatta kitob o'qishni unutmang.

Bo'sh vaqtingiz bekor o'tmasin. Ta'til ham o'qish, o'rganish, izlanish ekanligi yodingizda bo'lsin.

Iskandar ODILOV,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 206- maktab o'quvchisi.

Prezident asrlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

To'rtinchidan, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtirok etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish.

Bu — Vatanimizning dunyo bozoridagi o'rni va nufuzini, fuqarolarimizning o'z yurti iqtisodiy salohiyati va qudrati bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish demakdir.

Beshinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

Bu — boy tabiiy zaxiralarimiz, intellektual hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatimizdan to'liq va samarali foydalanish, iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga oladigan, tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan, mineral va qishloq xo'jaligi xomashyosini sifatli qayta ishlaydigan quvvatlar yetakchi o'rin tutishini ta'minlash, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini kuchaytirish, qishloqda yangi ish o'rinlarini yaratish demakdir.

Ijtimoiy sohada:

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi.

Birinchiidan, xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich va izchil oshirib borishni ta'minlash, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari — bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmini yanada takomillashtirish.

(Davomi bor).

**Diqqat, piyoda!**

M a ' l u m k i , Respublikamizda «Diqqat, piyoda» harakat xavfsizligi oyligi davom etyapti. Bu tadbir piyodalarning xavfsizligini ta'minlab, ularni xushyor bo'lishga undaydi. Lekin ba'zi piyodalarning yo'l qoidalarini qo'pol ravishda buzayotganliklari, natijada o'zlarining ham, haydovchilarning ham hayotini xavf ostiga qo'yayotganliklari kishini ranjitadi. Yaqinda ana shunday ko'ngilsiz bir voqeaning guvohi bo'ldim: « Men ketayotgan trolleybus «Chorsu» bozorining chorrahasi yonidagi bekatda to'xtadi. Chorrahada DAN xodimi turardi. Trolleybusdan tushgan odamlar bozorga o'tish uchun shoshilinch ravishda yo'lni kesib o'ta

boshlashdi. Buni kuzatib turgan DAN xodimi tegishli belgilar orqali piyodalarga o'tish yo'lagi tomon ishora qildi. Shu payt qizil chiroq yonib, mashinalar yura boshlashdi. 15 yoshlar

yurdi. DAN xodimi hushtagini chalib, o'tish yo'lagi tomon ishora qildi. Ular esa parvo qilmay, yo'llarida davom etdilar. K u t i l m a g a n d a mashinaning qattiq tormoz

BIZNING XAVFSIZLIGIMIZ KIMGA KERAK?!

chamasidagi bir bola qo'lidagi og'ir yuki bilan ko'chani kesib o'ta boshladi. Uning ketidan o'rta yoshlardagi bir ayol ham

bergani barchaning diqqatini tortdi. Haligi ayolni mashina urib yuborishiga ozgina qolgandi. Ayol sarosimada

edi. DAN xodimi yetib kelib, tegishli choralarni ko'rdi. Trolleybusda o'tirgan bir otaxonning gaplaridan o'zimga keldim: «Tavba, xudo bir asradi-ya. Odamlar shunchalar loqaydmi? Sog'liq o'zlariga kerak-ku».

Bu voqea menga saboq bo'ldi. Barchaning salomatligi o'z qo'lida ekanligiga men yana bir karra amin bo'ldim. Siz-chi, siz bunga nima deysiz, aziz tengdoshim?

**Hushyor bo'lsang piyoda,
Umring bo'lar ziyoda.
Yo'lning har bir qoidasi,
Sening umring foydasi,
Shunday emasmi?**

*Kamola UBAYEVA,
Poytaxtimizdagi Obid
Sodiqov nomli 249 -
maktabning 8 - «A» sinf
o'quvchisi.*

XATLAR TEGIRMONI**XAYR ENDI «AYIQCHA»M!**

Kuni kecha Navoiy shahridagi «Ayiqla» nomli 11 - bolalar bog'chasida 7 yoshga qadam qo'yayotgan bitiruvchi bolajonlar uchun bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda endigina sanashni, o'qishni, yozishni va chizishni o'rganayotgan bolalar sahnada o'z mahoratlarini namoyon qildilar.

Baxtiyor bolalarga boqib nafaqat men, balki barcha yig'ilganlar hayolan o'z bolalik damlariga bir on bo'lsa-da qaytdilar. Nazarimda, biz bolaligimizda bu qadar zukko va dono emas edik go'yo. Hozirgi bolajonlar butunlay boshqacha. Kechada ota-onalar ham ishtirok etib, farzandlarini sog'lom, barkamol, bilimdon qilib tarbiyalaganliklari uchun bog'cha opalariga samimiy minnatdorchilik bildirishdi. O'z navbatida bog'cha opalari Dilfuza opa, Dilrabo opa va Zebiniso opalar eng faol bolajonlarga «Faxriy yorliq» va diplomlar topshirdilar, sovg'a-salomlar ulashdilar.

Bolajonlar «Xayr, endi «Ayiqla»m!», deya qadrdon bog'chalari bilan xayrlashdilar. Ularning samimiy ko'z yoshlari barchamizni to'lqinlantirib yubordi.

*Shahnoza OMONJON qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika nafis san'at
litseyining 11 - «G» tarix sinf o'quvchisi.*

OQ YO'L, KICHKINTOYLAR!

Ayni kunlarda Respublikamizdagi deyarli barcha bog'chalarda bayram tantanalari - tayyorlov guruhi kichkintoylarini maktabga kuzatish marosimlari o'tkazilyapti.

Jumladan, kuni kecha potaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 169-bolalar bog'chasida ham «Hayr bog'chajon» bayram - tadbiri ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tdi.

Bog'cha opalari va tarbiyachilari tomonidan namoyish etilgan sahna ko'rinishlari, qo'shiq va raqslar

Bir mavzuda qo'sh maktub

barchada katta taassurot qoldirdi. Tadbir so'ngida, bolajonlarga ota-onalarining esdalik sovg'alari taqdim etildi.

O'zgacha bir kayfiyat, hayajon ila qadrdon bog'chalarini, mehribon bog'cha opalarining issiq bag'irlarini tark etayotgan bolajonlarni biz ham samimiy qutlab, ularga hayotda faqat oq yo'l tilab qolamiz.

*Uzo KOMILOVA,
«Yoshlar» telekanalining yosh muxbiri.*



YURTIMNI QO'RIQLAYMAN

Bir kuni ko'chaga suv sepib, supurayotgan edim. Qarasam, daraxt tagida bir to'da bolalar chug'urlashib nimalarnidir talashishardi. Ularning gaplari qulog'imga chalinib, diqqatimni tortdi. Ular Mustaqillik haqida bahslashishardi. Kichkintoy ukalarimning mustaqillik haqidagi murg'ak fikrlariga qiziqib, ko'cha supurish bahonasida asta quloq soldim.

-Bobomning aytishlaricha, hozir bizni Mustaqilligimiz tufayli butun dunyo tanir ekan. Men ham katta bo'lsam akalarimga o'xshab Amerikada o'qiyman, Mustaqilligimizni asrayman, - dedi bir bola.

-Hozir-chi, bizning kurashimiz butun dunyo kurashiga aylanibdi. Dunyoning 30-dan ortiq mamlakatida o'zbek kurashi bo'yicha xalqaro federatsiyalar tuzilibdi. Buni o'zim televizorda eshitdim. Men katta



bo'lsam polvon bo'lmoqchiman. Yurtimizni, Prezidentimizni asramoqchiman, - dedi yana bir bola.

-Men yaxshi bola bo'lmoqchiman, - dedi jajgina bir bola.

-Nega, voy, - deb kulishdi yonidagi bolalar.

-Chunki adamlar Vatanimizni asrash uchun ko'p-ko'p yaxshi odamlar kerak dedilar, - deb javob berdi u. - Shuning uchun ham men yaxshi bola bo'laman.

Supurib-supurib bolalarga yaqin borib qolibman.

-Assalomu alaykum, Munisa opa, - deb ular baravariga salom berib, menga yo'l berishdi.

Men esa:

-Yashanglar, mening aqlli ukajonlarim, - deb ularning boshlarini silab qo'ydim.

Munisa ABDURAHMONOVA,
yosh muxbir.

DIYDOR HAM SHIFO EKAN...

Mening ismim Jahongir. Yozgi ta'tilda barcha do'stlarim qatori mazza qilib dam olyapman. Tunov kuni maktabimizning eng keksa o'qituvchisi bo'lmish Barno opa Yo'ldoshevaning bir haftadan beri qattiq betob ekanliklarini eshitib qoldim. Yoshlari 80 dan oshgan bo'lsa-da, ko'rinishlaridan hecham bunday yoshga o'xshamaydilar. Nuriddin, Temur, Nozima va yana bir necha o'quvchilar to'planishib, ustozimizni ko'rgani otlandik. Ularga bir dasta gul va issiq non ko'tarib borar ekanmiz, qarshimizdan yuzlaridan nur yog'ilib

turgan ustozimiz Barno opa chiqib qoldilar. Biz bilan quyuc salomlashib, uylariga boshlab ketdilar. Ustozimiz bilan suhbatlashib o'tirib, kech kirib qolganini ham bilmay qolibmiz. Nazarimizda Barno opamiz ham ancha tuzalib qolgandek bo'ldilar. «Sizlarni sog'inib qolgan ekanman-da, mana birpasda tuzalib qoldim», deya hazillashib ham qo'ydilar.

Jahongir OBLOQULOV,
Toshkentdagi
188 - o'rta maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.

«TURON»NING BOLALARI

Hozir ta'til mavsumi. Bolalarning ayni dam olib, xordiq chiqaradigan payti. Shu sababli ba'zi bolalar oromgohlarga, buva-buvilarinikiga va qarindosh-urug'larinikiga mehmonga oshiqadilar. Ko'pchilik bolalar esa turli xil to'garaklarga qatnab, hunar o'rganadilar. Bizning mahalla bolalari ham ta'til kunlarini bekor o'tkazmagan holda «Turon» nomli taekvando to'garagiga a'zo bo'ldilar. Bu to'garakka Asqar aka murabbiylik qiladilar. Ularning shogirdlari tuman, viloyat va hatto Respublika miqyosidagi musobaqalarda faol ishtirok etib, ko'p bor g'oliblikni qo'lga kiritganlar. Bolalarning aytishlaricha, Asqar aka tarixiy asarlarni o'qishni juda yoqtirar ekanlar. Shuning uchun to'garakning

nomini ham «Turon» deb nomlabdilar. Shogirdlariga qadimda yurtimizning Turon deb atalgani haqida gapirib, buyuk bobokalonimiz Amur Temurning quyidagi ta'rifini yod oldiribdilar:

Bizkim mulki Turon,
Amiri Turkistonmiz.
Bizkim millatlarning
Eng ulug'i va eng qadimi,
Turkning bosh bo'g'inimiz.

Shuningdek, Asqar aka barcha shogirdlariga odob va ahloqdan ham dars berar ekanlar. Bolajonlar qalbidan joy olgan Asqar aka kabi murabbiylar safi kengayishini istardik.

Nargiza RIHSIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Zangiota
tumanidagi 3-maktabning
9-sinf o'quvchisi.

TA'TILNI BEKOR O'TKAZMANG

Yoz fasli kelishi bilan ko'pchiligimiz maroqli dam olishga, tog' yon bag'irlariga oshiqamiz, bu albatta foydali. Lekin oramizda shunday tengdoshlarimiz borki, ular turli to'garaklarga borib, o'z bilim malakalarini oshirishga intiladilar. Men ham shunday to'garaklardan biri ona tili va adabiyot to'garagiga boraman. Shuni unutmang, hamisha o'qib o'rganish kishiga faqat foyda beradi. Shunday ekan, ta'tilni bekor



o'tkazmang, qiziqarli kitoblar o'qing, bu albatta foydali. O'z ustingizda ko'proq ishleng. Bu sizga faqatgina foyda beribgina qolmay, ma'naviy ozuqa ham beradi. Zero, hozirda olgan bilimingiz toshga o'yilgan naqshdir.

Malohat
TO'XTAYEVA,
A.Ikromov tumani,
116-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

**Bizning mehmon**

Aziz tengdoshlarim, «Yoshlar» telekanali orqali Abdurasul Abdullayev muallifligidagi «Zakovat» teleo'yinini hammangiz sevib tomosha qilsangiz

NIIMA?

kerak-a? Bu intellektual o'yin yoshu qari uchun mo'ljallangan akademik dars soatiga o'xshaydi. Bugungi mehmonimiz o'zining o'ta bilimdonligi, samimiyligi bilan muxlislar qalbidan o'rin olgan jamoa sardori G'anisher Rahmatullayevdir.

G'anisher Rahmatullayev 1973 yil 29 iyunda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy Universitetining biologiya fakultetini tamomlagan. Hozirgi kunda markaziy harbiy sport klubining qurolli kuchlari zobit sardoridir. U nafaqat tennis bo'yicha bosh murabbiy, balki, O'zbekiston televideniyesi «Yoshlar» kanalidagi «Tennis» va «Bilyard» ko'rsatuvlarining boshlovchisi va muallifi, hamda sport sharhlovchisi hamdir.

- G'anisher aka, «Zakovat» o'yiniga qanday kelib qolgansiz?

- «Zakovat» o'yinini birinchi marta «Yoshlar» telekanali orqali tomosha qilganman va juda qiziqib qolganman. Qiziqishim shu darajaga yetdiki, qo'limga qog'oz, qalam olib «Zakovat» o'yiniga xat yo'lladim. Teletomoshabin sifatida ikki-uch bor o'z savollarim bilan o'yinda ishtirok etdim. Birida savolimni topishgan bo'lsa, birida bilimdonlar ustidan g'olib bo'ldim. Tanlov e'lon qilinganini eshitib, O'zMUga borib o'z bilimimni sinab ko'rdim.

Intilganga tole yor deganlaridek, shu tariqa «Zakovat» klubi a'zosiga aylanib qoldim.


- «Yigit kishiga qirq hunar ham oz» degan maqol sizga qaratilgan chamamda. Aytingchi, barcha ishlarga vaqtingizni qanday yetkazasiz? Hayotdagi shioringiz qanday?

- Shiorim harakat va yana harakat. Harakatda barakat deyishadi-ku. Vaqtimdan unumli foydalanish men uchun odatiy holdir.

- G'anisher aka, bunday mukammallikka yetishishga

asosiy turtki bo'lgan sabablarni aytib o'tsangiz?

- O'zim yoshman, mukammal inson darajasiga yetishim uchun ancha ter to'kishim va izlanishimga to'g'ri keladi. Muvaffaqiyatlarga erishishimga eng

QACHON?

asosiy sababchi otam deb bilaman. Ular hayotda ham, sportda ham, oilada ham o'ta qattiqqo'l, jiddiy va har qanday ishga qatiyat bilan yondoshadigan insonlar.

- Atrofdagingizlar siz bilan qanday munosabatda bo'lishlarini istaysiz?

- Atrofdagilarim men bilan samimiylik va ochiqko'ngillik bilan munosabatda bo'lishlarini chin dildan istardim.

- **Mard o'g'lon sizning nazaringizda qanday bo'lishi kerak?**

- Eng avval Vataniga, ota-onasiga, yor-do'stlariga, oilasiga sodiq bo'lishi lozim. Shu qatorda yana mard, jasur va eng asosiysi,

QAYERDA?

g'uri

va lafzli bo'lishi shartdir.

- **Siz uchun hayotning qizig'i nimada?**

- Insonlar orasidagi mehr-oqibatda.
- **Har bir bola sizning o'rningizda o'zini ko'rishni orzu qilsa ne ajab. Tinib-tinchimas bolajonlarga qanday niyatlaringiz bor?**

- Aqlan, fikran va jismonan komil insonlar taraqqiyotning poydevoridir. Hayotda o'z fikrini qat'iy himoya qila oladigan, oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha oladigan yoshlarimiz kam bo'lmaydilar. O'zbekistonning kelajagi iqtidorli yoshlar qo'lida ekanligi, buning uchun ular oltinga teng vaqtlarini bekor o'tkazmay, o'zlarida qandaydir bir mas'uliyatni sezgan holda o'qib-o'rganishlari va izlanishlari zarur deb o'ylayman.

- **G'anisher aka, samimiy suhbatigiz uchun tashakkur. Kelgusi ishlaringizda sizga omad tilab qolamiz.**


Shodiya ABDULLAYEVA,
Toshkentdagi
274 - maktab o'quvchisi.

Fransiyalik astronom va fizik olim Dominik Fransua Aragoni (1786-1853) Fransuz fanlar akademiyasiga qabul qilayotganlarida taniqli olim Per Simon Laplas (1749-1827) uning nomzodiga qarshi chiqadi. Laplas yosh olimning hali yetarli darajada o'zini ko'rsatolmaganligini ro'kach qiladi. Shunda, mashhur olim Jozef Lui Lagranj oddiygina qilib:

«Hurmatli Laplas, siz «Bilimlar Olimpi»ga qadam qo'yganingizda o'zingizning ham havas qiladigan hech narsangiz yo'q edi. Sizning

KAMTARLIK SABOG'I

iqtidoringiz va bo'lg'usi kashfiyotlaringizdan umid qilib, safimizga qabul qilgandik. Va buyuk ilmiy kashfiyotlaringizning salmoqli



qismi akademik bo'lganingizdan so'ng dunyoga kelganini tan olarsiz?», deydi.

Bolgar tilidan
Muhabbat
YO'LDOSHEVA
tarjimasi.

Bolajonlarimiz shodligi ichlariga sig'maydi. Quvonmay bo'ladimi axir, 1 Iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan ularga sovg'a tariqasida Sariosiyo tumanidagi 2 - umumiy o'rta maktab quchog'ida «Istiqlol» nomli bolalar oromgohi ochildi. Oromgoh juda so'lim, chiroyli qilib, did bilan bezatilgan.

Kattagina sport zali ellik o'quvchiga mo'ljallangan yotoqxonaga aylantirilgan. O'rinlarda oppoq, toza choyshablar, devorlarda turli mavzulardagi rasmlar ko'rgazmalar, tabiiy va sun'iy gullar kishining bahri-dilini ochadi. Oshxonaga kirsangiz, deraza tokchalaridagi chiroyli, xushbo'y gullarni, tartib bilan o'rnatilgan stol va stullarni, ozoda va sarishta oshpaz xonasini ko'rib, yanada kayfiyatingiz ko'tarilib ketadi. Oshpazimiz Sayfiddin Xudoydov pishirgan shirin va xushta'm taomlarning xushbo'y hididan ishtahangiz «karnay» bo'lib ketadi. Bolalarga ikki mahal issiq ovqat, bir mahal murabbo, saryog' bilan shirin choy beriladi. Oromgohimiz ertalabdan tushga qadar faoliyat ko'rsatadi. Oromgohimiz rahbari, maktabimiz tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulchehra opa Asqarova, tarbiyachi Soniya opa Qurbonova va ko'plab mohir, shirinso'z tarbiyachilar

bolajonlar qoshida parvona. «Balli qizlar», «She'rxonlik», «Quvnoq startlar», «Vatanimni kuylayman», qo'shiq tanlovi, «Kim epchil-u, kim chaqqon», «Qani, kim birinchi?» kabi sport musobaqalari, turli joylarga, masalan Xotira maydoniga sayohat, bog'

sayli va daryo havzalarida cho'milish kabi ma'naviy va madaniy hordiqarning reja asosida muntazam o'tkazib kelinayotgani bois o'quvchilarning bekorchilikdan zerikishga vaqtlari yo'q. Bir tarafda 1-7 sinf qizlari «Balli qizlar» tanloviga

«ISTIQLOL» BAG'RIDA



hozirlik ko'rishayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafda o'g'il bolalar guruhlariga bo'linib, futbol, volleybol, milliy kurash, yengil atletika musobaqalari bo'yicha qizg'in bellashmoqdalar. Ularning bilimdonu zukko, chaqqonu epchilliklarini kuzatib, astoydil havas qildim.

Oromgohda qizlar uchun ham, o'g'il bolalar uchun ham alohida yig'ilishlar o'tkazilib, odob-ahloq mavzusida suhbatlar uyushtiriladi, baxs va munozaralar bo'lib turadi. «Aeroport» mahallasida «Istiqlol» oromgohining tashkil etilganidan ota-onalar ham xursand. Istiqlolimiz sharofati bilan ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlarning qadriga yetib, «Istiqlol»imiz bolalari ham kelajakda Yurtboshimiz, ustoz va tarbiyachilarimiz orzulagandek komil insonlar bo'lib ulg'ayadilar, degan umiddaman.

*Nodira QURBONOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumani, «Aeroport» mahallasi.*

Yaqinda ko'xna va hamisha navqiron Xiva shahriga sayohat qildim va bir olam taassurotlar bilan qaytdim. Ularni sizlar bilan ham o'rtoqlashgim keldi.

Markaziy Osiyodagi eng diqqatga sazovor shaharlardan biri - Xiva Amudaryoning chap sohilida, O'zbekistonning hozirgi Xorazm viloyatining janubida joylashgan. Bu mintaqada bus-butun saqlanib qolgan yagona nodir obida - shahardir. 1967 yildan boshlab Xivaning ichki qismi - «Ichan qal'a» YUNESKO tomonidan jahon ahamiyatiga molik tarixiy obida sifatida e'tirof etildi. San'at - davrlar o'rtasidagi

ko'prikdir. Xivadagi eng baland va go'zal minoralardan biri «Kaltaminor» - 1851 yilda Ota darvoza yaqinidagi

MOZIQA TENGDOSH OBIDALARI

Muhammad Aminxon Inoq madrasasi yonida tiklana boshladi. U haqida afsonalar ham to'qilgan:

«Emishki, boshqa bir davlat hukmdori Xiva xoni bilan raqobatlashib, ustaga o'z mulkida shunday minora qurishni taklif etgan. Biroq Xorazm hukmdori bu gapni eshitib, me'morni o'ldirgan, shuning uchun minora nihoyasiga yetmay qolgan ekan». Minora asosining diametri 12 metr, balandligi 29

metr ekan. Minoraning mahobatligi emas, balki o'ziga xos

bezagi ham kishida katta taassurot qoldiradi. Uning tanasidagi belbog'lar naqsh bilan qoplangan. Ular bir necha ranglar (ko'k, feruza, havorang, oq koshin parchalari) vositasida turli shaklda badiiy bezak hosil qilgan.

Qo'li gul ajdodlarimizning qalb qo'ri bilan yaratilgan tarixiy obidalardan yana biri «Pahlavon Mahmud maqbarasi» dir. Uning qurilishida Oдина Muhammad Murod, Abul Jabbor Is'hoq



o'g'li kabi mohir ustalar qatnashgan. Maqbara Pahlavon Mahmud she'rlari bitilgan chiroyli koshinlar bilan bezatilgan. Bu maskan hozirda xalqimizning muqaddas qadamjolaridan biri hisoblanadi.

Bu tarixiy obidalarining inson qo'li bilan yaratilganiga aql bovar qilmaydi.

*Farangiz
ISOMIDDINOVA.*

KULCHAQOYNING SARGUZASHTLARI

Sahnaga boshlovchi chiqadi:

-Assalomu alaykum aziz bolajonlar! Qalay, yaxshi dam olayapsizlarmi?

Bugun ertalabdan beri siz dam olayotgan oromgohda bo'lib, sizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, juda xursand bo'ldim.

Hammayoq salqin, ozoda. Faqat... Oshxona oldidan o'tib ketayotib, bir manzaraga ko'zim tushib, to'xtab qoldim. Yerda non burdasi uvol bo'lib yotganini ko'rib, ko'nglim biroz ranjidi. Keling, men sizlarga bir ertak aytib beray, zora ayrim bolalar qilgan bu ishlarini boshqa takrorlamasalar.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bir chol va kampir yashagan ekan. (*Sahnaga chol va kampir chiqishadi.*)

Bir kuni o'sha cholning

Non yegisi kep qoldi.

O'ylab o'tirmay tezda,

Kampirni ishga soldi.

Chol:

-Kampirginam, sarishtam,

Uyimdagi farishtam.

O'zingsan mohir chaqqon,

Yopib bergin issiq non.

Kampir:

-Xo'p bo'ladi, buvasi,

Mana, yozgi ta'til boshlanib, oromgohlar yana gavjum bo'lib qoldi. O'quvchilar allaqachon oromgoh bag'rini to'ldirib, turli tadbirlar o'tkazishmoqda. Quyida keltirilayotgan ko'rinish oromgoh sahnasi uchun mo'ljallangan bo'lib, shaklan ertakka o'xshasa-da, bolalar o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishadi, degan umiddamiz.

Bir xamir-da jazosi.

Yaxshilab xamir qoray.

Chol:

-Mayli, men o'tin yoray.

(*Chiqib ketadi.*)

Kampir:

Uyda qolmovdi-ya un,

Olib kelarman bugun.

Suprani obdon qoqay,

Bitta bo'lsa ham yopay.

(*Bir ozdan so'ng pishgan nonni ko'tarib kiradi.*)

-Mana pishdi kulcha non,

Kulchamas u, shirmonjon.

Birpasgina sovutay,

Cholimni xursand etay.

(*Kulchaoy birpas turib, zerikadi. So'ngra derazadan sakrab tushadi.*)

Kulchaoy:

-Meni taniysizmi siz?

Kulchaoyimiz o'zimiz.

Eslab Bo'g'irsoqjonni,

Men ham kezay jahonni.

(*Yo'lga tushadi. Shu vaqt bir qizcha kelayotganini ko'rib, o'zini panaga oladi. Qizcha ushoqlarini to'kib-sochib non kavshab o'tib ketadi.*)

-Qarangiz bu qizchani,

Ko'zlari yulduzchani.

U bo'larmi lo'bar qiz?

Uvol qildi-ya, essiz...

(*Xafa bo'lib non ushoqlarini tera boshlaydi. Uzoqdan yana bir bola ko'rinadi.*)

1 - bola:

-Nonushtaga oyimlar

Yumshoq non bergandilar.

Shundan yeb olay ozroq,

Borar joyim uzoqroq.

Iye, qotibdi-ku non,

Bunday nonni yemayman.

(*Nonni yo'lning chekkasiga tashlab, ketib*

qoladi. Kulchaoy uni chaqiradi. Bola ketib qoladi.)

Kulchaoy:

-Aytsam, gapning ochig'in,

Bu bolaning qiligi -

Nonko'rlik deb atalar,

Odotsizlik sanalar.

(*Yo'lida davom etadi. Yana bir bola axlat solingan chelakni ko'tarib o'tib ketadi va nariroq borib, chelakni bo'shatadi. Axlat orasida bir-ikki non burdasi ko'rinadi. Bola chopqillagancha uyiga ketadi. Kulchaoy darg'azab.*)

-Shumi dehqonga hurmat?

Bug'doy va nonga izzat?

Qancha kishi to'kkan ter,

Undirguncha Ona - Yer.

(*G'amgin.*)

Ko'rdim shuncha isrofni,

Lek ko'rmadim insofni.

Nahot hamma bolalar,

Nonlarni uvol qilar?

(*Yig'lab o'tirib, uxlab qoladi. Bir bolakay uyiga qaytayotib, uni ko'rib qoladi.*)

2 - bola:

-Oppoqqina kulchani,

Kim qo'ydi yerga, qani?

Olib ko'zga surtayin,

So'ngra uyga eltayin.

(*Nonni yerdan olib, uyiga ketadi. Uyiga kirib kelganda, ertak boshidagi chol va kampir choy ichib o'tirishgan bo'ladi.*)

-Kelayotsam, bobojon,

Yo'lda yotar oppoq non.

Kimdir bilmay uvolni,

Ranjitibdi-ya nonni.

(*Chol nonni olib ko'ziga surtadi.*)

Chol:

-Balli, ko'p yasha, bolam,

Savobga qolding biram.

Bug'doy un, non bo'lguncha,

Dasturxonga kelguncha,

Singadi qancha mehnat,

Novvoylik ham bir san'at.

Xalqimizda udumlar,

Bari nonga bog'lanar.

Hatto qilishar duo:

«Nondek bo'lg'in, iloyo».

Non — baraka, saodat,

Izzati yaxshi odat,

Uvol qilmang hech qachon,

Eng aziz ne'matdir non.

Boshlovchi chiqadi:

-Mana, aziz bolajonlar, ertagimiz ham tugadi.

Qissadan hissa chiqarish esa

Sizlarga havola. Keling,

bobodehqonning, tegirmonchilarning,

novvoyning, qolaversa, yuzlab,

minglab kishilarning mehnati natijasida

rizqimizga aylangan nonni uvol qilmaylik,

uning qadrini baland tutaylik.

Dilfuza

SHODIYEVA,

O'ZMU

qoshidagi

S.Rahimov

akademik litsey

o'qituvchisi.

SUVSIZ HAYOT YO'Q

Suvsiz hayotimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Lekin hammamiz ham bu ne'matning qadriga yetyapmizmi? Afsuski, yo'q!

Yaqinda bir nashrda o'qib qoldim. Isroil, Turkiya kabi rivojlangan davlatlarda ichimlik suvini do'konlardan «Fanta», «Kola»lar singari sotib olisharkan. Xonadonlardagi vodoprovodlarda oqayotgan suv ichish uchun yaroqsiz ekan...

Bizning toza, zilol, muzdek suvlarimizni esa ichib to'yaysan kishi. Biz esa uning bu darajaga yetib kelguncha qanchalar mehnat, mablag' sarflanishi haqida o'ylab ham o'tirmaymiz. Axir, nimani xor qilsang, o'shanga zor bo'lasan, deb bejiz aytilmagan-ku.

Aziz tengdoshim, har birimiz mana shu hikmatni o'zimizga shior qilib olaylik!

*Qizlarxon YO'LDOSHEVA,
Poytaxtimizning Mirobod
tumanidagi
214 - maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.*



ZEB ZIYNATGA O'CH BO'LMAYLIK

Mahalladagi dugonalarim bilan suhbatlashib turgandik. Shu payt Nazokatlarining uyiga militsiya xodimining kirib ketayotganini ko'rib qoldik. Dugonam Nodiraning aytishicha, allaqanday bezorilar Nazokatning tilla ziragi, uzuklarini yechib olishganmish...

Shu o'rinda menda bir mulohaza tug'ildi: bunday ko'ngilsizliklarga o'zimiz ham sababchi bo'lib qolmayapmizmi? Ayrim tengdoshlarimning yosh bo'la turib, tilla taqinchoqlarga, zebu ziynatlarga o'chliklarini yaxshi bilaman. Hatto maktabga ham taqib kelishadi. Menimcha, ularni mehmondorchilikda, to'y-hashamlardagina, shunda ham kattalarning nazorati bilan, taqilsa, o'zimizning ham, ot-onalarimizning ham ko'ngillari xotirjam bo'lardi.

*Nigora ESHIMOVA,
Arab tiliga ixtisoslashgan
29 - maktabning
7 - «V» sinf o'quvchisi.*

Jonivorlar, xususan itni insonning do'sti deyishadi. Buni inkor qilib bo'lmaydi.

Uylarga yaxshi qo'riqchi, boshga musibat tushganda ko'makchi

bo'lishgan. Ammo ular nima bo'lganda ham hayvon-da! Insonlardek ongli fikrlash ularga yot. Fikrimning isboti sifatida bir voqeani so'zlab bermoqchiman. Har kim o'z uyida xohlagan jonivorini boqish huquqiga ega. Ammo ana shu jonivorlari uchun mas'ul, javobgar ekanliklarini ham chuqur his qilishsa yaxshi bo'lardi. Ko'p qavatli uylarda yashovchilarning ko'pchiligi kuchuk boqishlarini yaxshi bilamiz. Ular erta tongda kuchuklarini sayr qildirishga olib chiqishadi. Aynan shu paytda bolalar maktab va bog'chalariga

HAYYON BARIBIR HAYYON-DA!

yo'l olishadi. Qarovsiz yurgan itlar ana shu kichkintoylarga ham jisman, ham ruhan ziyon yetkazishlari mumkin.



Ularning hurishidan nafaqat kichiklar, hatto kattalar ham cho'chishadi.

Yaqinda bir voqeaning

guvohi bo'ldim: yoshi ancha ulug' bir otaxon kattakon itini sayr qildirib yurardi. Uning iti bir ayol yetaklab ketayotgan itga qarab hura boshladi. Otaxon uni tinchlantirishga urindi. Lekin it egasining tanbehlariga

parvo qilmay, atrofdagi bolajonlarga qarab hura ketdi. Bolalar qiyqirishib, har tarafga qocha boshladilar.

Yugurib ketayotgan itning arqonidan ushlab olgan otaxon ham yiqilib tushdi.

It esa ularni ham sudrab ketaverdi...

Bunday ko'ngilsiz manzaralar ko'p qavatli uylarda yashovchi ko'plab tengdoshlarimga ham yaxshi tanish bo'lsa kerak. Ularning oldini olish mumkinmi? Menimcha mumkin. Xonadonlarda it boqadigan insonlar jonivorlarini barvaqt, hali ko'chalarda bolalar yo'qligida tumshuqlariga maxsus moslama taqqan holda sayr qildirsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi.

*Nazokat UMAROVA,
Toshkent shahar,
Chilonzor tumanidagi
200 - litsey maktabning
10 - «B» sinf
o'quvchisi.*

*Sahifani Toshkent Yuridik instituti 3-bosqich tolibi
Behzod YUSUPOV tayyorladi.*

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu rukni Rustam OBID olib boradi

Bu odam butun dunyoni zabt etgan dvigatelni yaratgan, uni, ya'ni bu qurilmani hozirgi kunda hamma - temiryo'lichilardan tortib dengizchilaru, haydovchilargacha

etardi. Insonni u sig'inadigan Xudo uchun ta'qib qilish mumkin. Chunki uni o'z ixtiyori bilan tanlagan. Insonni e'tiqodi uchun ta'qib qilish mumkin, chunki uni ham o'z ixtiyori bilan tanlagan. Ammo lekin dunyoga nemis bo'lib kelgan ekansan, arzu dodingni

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

yaxshi bilishadi. Ammo «dizel» degan so'z shunchaki mashina emas, balki bir insonning nomi ekanligini, afsuski, ko'pchilik bilmaydi. Vaholanki,

kimga aytasan? Kimdan panoh kutasan? Bu o'rinda har qanday Xudolarga iltijolar ham, har qanday hukmdorlar huzurida ichilgan qasamlar

shunday odam dunyoda

DIZEL DVIKATELI IXTIROCHISI

yashab o'tgan. Ushbu hikoyamiz ham u qanchalik baxtli va qanchalik baxtsiz hayot kechirgani haqida.

U 1858 yil 18 mart kuni Parijda tug'ilgan, boshqalardan g'aribona bo'lsa ham, ozodagina kiyimi bilan ajralib turardi. U ona shahrini juda qattiq sevar va juda yaxshi bilardi. Chunki kitobga muqova yasash bilan shug'ullanuvchi otasi uni duch kelgan manzilga

kitob eltib berish uchun jo'natib turardi-da! Ular parijlik minglab oilalar kabi yashashar, bugungi mehnat ertaga non keltirishini har tomonlama tushunishardi. Dam olish kunlarini ham el qatori Vensenn o'rmonida o'tkazishar, barcha bilan barobar qayiqalarda suzishar, yam-yashil maysazorlarda nonushta qilishardi. Chunki ular nemis millatiga mansubligini hech kim, hech qachon hatto xayoliga ham keltirmas edi. Biroq Fransiya-Prussiya urushi boshlanganida u hol darhol yodga tushdi. Bazen va Mak Magon kabi arboblarning siyosiy ko'rliqi oqibatida poytaxtda millatchilik avjiga chiqib ketdi.

Bola shu zahotiyoq «nemis cho'chqasi»ga aylandi qoldi. Endigina 12 yoshga kirganiga qaramay, bu ahvolning oqibati naqadar dahshatli ekanligini go'dak juda yaxshi his

ham hech narsani hal qilib bera olmaydi. Lekin dunyoga shu millatda kelganing uchun sen o'zing aybdor emassan-ku, to'g'rimasmi axir? Dizel ulg'ayganidan keyingina uning bir emas ikkita Vatani - Germaniya va Fransiya borligini, biroq bu dunyoda birorta ham vatani yo'qligini anglab yetdi...

Gavr porti, qochqinlarni olib ketayotgan yelkanli kema, u yoq-bu yoqqa alanglab nemischada ehtiyotlik bilan so'zlashish, Angliyaning oppoq sohillari... Orada bir necha oy o'tgach otasi Rudolfni och qolgan oilani tark etib, Germaniyadagi amakisining huzuriga yo'l olishga va Augsburgda o'qishga undaydi. Va u jo'nab ketadi. Rudolf 13 yoshidayoq oilasining moddiy bo'lmasa ham har qalay ma'naviy qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lgan edi. Mustaqillik uni intizomga o'rgatdi va ayni paytda tabiatida salbiy xususiyatlarni uyg'otdi.



Kamtarligi yaxshiku-ya, ammo u maydagap, injiq, qaysar bo'lib qoldi. Biroq nemislarga xos tirishqoqligi ustun kelaverdi baribir. Balki aynan shu - odamovilik xususiyati bilan u avval real bilim

yurtida, keyinchalik politexnika maktabida eng a'lochi o'quvchi bo'lgandir? Ehtimol, ana shu tufayli

bir mehmon professor uni erk alab, Myunxendagi

Oliy texnika maktabida o'qishga taklif etgandiz. Myunxenda esa 1878 yil bahor kunlarining birida o'qilgan 45 daqiqalik bir leksiya mavzui uning butun kelgusi hayotini belgilab berdi. Ro'zg'orda hammamiz o'rganib qolgan oddiy muzlatgich qurilmani yaratgan professor Linde bu ma'ruzasida buyuk Sadi Karnoning termodinamik davriylik haqidagi ta'limoti haqida, yonilg'idagi issiqlik ajratish qobiliyatini naq 70 foizga qadar foydali ishga aylantirish imkoniyatini beruvchi ajoyib bir jarayon to'g'risida hikoya qilardi. Nikola Sadi Karno (1796 yil 1 iyun - 1832 yil 24 avgust) fransuz muhandisi - issiqlik dvigatellari nazariyasini yaratuvchilardan biri. Issiqlikning ideal aylanma jarayoni muallifi.

Ana shu ma'ruza chog'ida Rudolf esidan chiqmasligi uchun talabalik daftarining hoshiyasiga «Izotermani amaliyotda qo'llash imkoniyatini o'rganish kerak», deb tezgina yozib qo'yadi. Biroq xotira uchungina yozilgan ana shu bir jumla uzoq yillarga mo'ljallangan va uning butun kelgusi hayoti mazmunini belgilab beruvchi bir dastur bo'lib qolishini hatto uning o'zi ham bilmasdi.

(Davomi bor.)

Men «Orom» nomli maskanida o'qish menga musobaqalarda maktabda o'qiyman. juda yoqadi. Har bir kunimiz qatnashmay, chetda Maktabimiz qoshidagi bayramdek o'tadi. Turli turgan bolani bog'chada qiziqarli tadbirlar, tantanalar, topolmay siz. tarbiyalanganman. ayniqsa, taniqli san'atkorlar Ustozlarimizning o'zlari

«OROMIM - FAXRIM MENING»

O'qishni, yozishni, rasm bilan bo'ladigan ham qiziqib ketib, chizishni ham shu yerda uchrashuvlar bizga juda o'yinimizga qo'shilib o'rganganman. Bu bilim yoqadi. Sport ketishadi. Maktabimiz



Maktabimizda har kuni bayram.

qoshidagi «Orom» bolalar dastasini tanimaydigan, kuy va qo'shiqlarini maroq bilan tinglamaydigan, raqslaridan zavqlanmaydigan bolalar topilmasa kerak-a?!

Hade may Mustaqilligimizning 11 yilligini nishonlaymiz. Dastamiz qatnashchilari ushbu ayyomda o'zlarining yangi-yangi qo'shiqlari bilan ishtirok etish niyatida tinimsiz izlanyaptilar. Maktabimizdagi bu xayrli ishlarning bariga boshchilik qilayotgan



Bu mening ustozim bilan tushgan suratim.

direktorimiz Gulnora opa Qo'chqorovadan minnatdormiz.

Shaxzoda RIZAYEVA,
«Orom» nomli
bog'cha-maktabning
4-«J» sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar, hammangiz tilayman», «Vaalaykum assalom» tinchlik bo'lsin» demakdir. Shunday ertalab barvaqt uyg'onib, yuz- so'zining ma'nosi esa «Sizga ham ekan, salomgaalik olish farzdir.

ko'zlaringizni yuvib, buva va buvilaringizga, ota-onangizga salom berasiz-a. Lekin ana shu kalomni qanday aytish

lozimligini ham bilasizmi? Ko'pchilik bolalar qisqaroq qilib «Salom-alaykum» deb qo'ya qolishadi. Menimcha, bunday deyish odobdan emas. Chunki, bu so'zlarning ham bir olam ma'nosi bor: «Assalomu alaykum» degani «Sizga tinchlik

SALOMLASHISH ODOBI



Ko'pchilik kishilarga umumiy qilib bitta salom berish kifoyadir. Kichiklar kattalarga, yurib ketayotgan odam, o'tirgan odamga salom berishi lozim. Salomingiz samimiy, chin dildan bo'lsa, yanada fayzliroq bo'ladi.

Sharof RASULOV,
O'zbekiston Davlat Jahon
Tillari Universiteti tolibi.

Surxondaryolik Muhiddin Aliyorov yoshligidanoq tasviriy san'atga qiziqdi. Bu qiziqish uni to'garakka yetakladi. To'garak rahbari Sveta opa Muhiddinning chizgan rasmlariga yuqori baho berdi.

O'sha vaqtlarda Muhiddin Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi T.Saidaliyev nomli 2-maktabda o'qir edi. Bu

m a k t a b d a
Muhiddin 7-
sinf gacha o'qidi.

O'sha yili «Yosh musavvirlar» ko'rik-tanlovida qatnashdi. Uning chizgilari atrofdagilarni befarq qoldirmadi. O'sha tanlovda Muhiddinga birinchi o'rin nasib etdi.

Tanlov bahona Muhiddin taniqli musavvirlar e'tiborini tortdi. Uni Toshkentdagi Respublika tasviriy va amaliy san'at litsey internatiga o'qishga taklif etishdi. O'sha yiliyiq Muhiddinning omadi keldi va 8- sinfiga



Tanlov

BO'LAJAK MUSAVVIR

q a b u l

qilindi.

Bu yil Muhiddin Aliyorov 9 - sinfni yakunladi.

- Sinf rahbarimiz **F a r i d a Hamidullayevna** qatori barcha ustozlarimni juda yaxshi ko'raman, - deydi Muhiddin.

Ustozlarimiz o'ta mehribon va shu bilan birga



talabchandirlar.

Sinf doshlarim ham turli viloyatlardan kelishgan. Biz barchamiz bir-birimiz bilan ahilmiz. Bilganimizni o'rgatamiz, bilmaganlarimizni o'rganamiz.

Ayni ta'til kunlarida ham o'qib-o'rganishni tashlab qo'ymadim.

Tabiat manzarasi, ko'm- ko'k daraxtlar, chiroyli ochilgan gullar, dengizlar meni hamisha o'ziga rom etgan. Bularni qayta-qayta qog'ozga tushirgim kelaveradi.

Kelajakda yaxshi musavvir bo'lishni xohlayman. Buning uchun bor kuchimni, bilimimni ishga solishga tayyorman.

Muhiddinning orzulari amalga oshishiga biz ham tilakdoshmiz.

A. ABDULLAJONOV.

Bizning sinfimizda oldik. Yo'ldan o'tib Salimjon degan bola bor ketayotib, ko'zimiz g'arq edi. Hammamiz uni pishgan olxo'riga tushdi. hazillashib «Salimjon-nimjon» deb yurardik. Bir P o d a n i

Bir kuni besh-oltita bolalar podani haydab ketayotib, Salimni bir qo'rqitamiz, deb kelishib

HAZIL QILAMIZ DEB.



o'tloqqa yoyib yuborgach, o'zimiz ortga qaytib, haligi olxo'riga tirmasha boshladik. Shunda Salimjon:

-Bolalar, kelinglar, men daraxtga chiqib sizlarga olxo'ri tashlayman, -deb qoldi. Biz ham rozi bo'ldik. Salimjon hech qiynalmay daraxtga chiqib oldi va bizga olxo'rilardan irg'ita boshladi. Shu payt Bahrom,

Kunlardan bir kun

«Voy», -dediyu, menga kattaroq bir kishi bilan ko'zini kasalxonaga olib bordik. Ular Salimjonni qo'lini gipslab qo'yishdi.

Kasalxonadan chiqar ekanmiz, qilib qo'ygan ishimizdan pushaymon edik. Salimjonning bog'langan qo'lga qarab, ichimni allanima tirnayotgandek bo'laverardi. Hazil qilamiz, deb qilib qo'ygan ishimizdan Bahrom ikkimiz ham pushaymon edik. Endi hech qachon bunday hazil qilmaymiz...

Xurshid FOZILOV,
Toshkent viloyati,
Zarkent qishlog'i.

1. Yer yuzidagi eng katta materik qaysi?

- a) Yevrosiyo
b) Afrika
c) Shimoliy Amerika
d) Janubiy Amerika

2. Q a y s i hasharotning eshitish organlari Oyoqlarida joylashgan?

- a) Mingoyoq
b) may qo'ng'izi
c) chigirtka
d) ipak qurti

3. Dunyodagi eng baland bino qaysi?

- a) Ottavada
b) Parijda
c) Nyu-Yorkda
d) Londonda
e) Rimda

shaharda joylashgan?

- a) Ottavada

ARALASH

- b) Parijda
c) Nyu-Yorkda
d) Londonda
e) Rimda

4. Diametri eng katta daraxt qaysi?

- a) Evkalipt
b) Dub
c) Baobab
d) Chinor

5. Yer yuzidagi «dunyo tomi» deb nom olgan eng katta, baland cho'qqi qaysi?

- a) Kommunizm cho'qqisi
b) Mak-kinli tog'i
c) Kinimanjaro
d) Everest cho'qqisi

6. Yer yuzining necha foizini suv tashkil etadi?

- a) 29 % ni
b) 71 % ni
c) 75 % ni
d) 85 % ni

7. «Jadit» so'zining ma'nosi nima?

- a) yangini
b) shahid
c) qadimni
d) erksevar

8. «Saodat sohili» asari kimning qalamiga mansub?

- a) Sharof Boshbekov
b) Said Ahmad
c) Maqsud Shayxzoda
d) Xayriddin Sultonov

Iroda HAKIMOVA,

Shayxontohur

tumanidagi

320 - maktabning

8 - «B» sinf o'quvchisi.

OLCHALI KULCHA

Iliq sutga xamirturush solinadi, un, 60 gr. shakar, tuz, bir dona tuxum, yumshatilgan saryog', vanilin



qo'shib xamir qoriladi. Xamir 30 daqiqaga o'rab qo'yib, oshiriladi.

Uch dona tuxum, 150 gr. shakar, limon suvi va po'sti aralashtiriladi.

Listni yog'lab, oshgan xamir yoyiladi, yana 15 daqiqa davomida tindiriladi. Xamir ustiga bir tekisda tvorog hamda olcha qo'yiladi. 30 daqiqa davomida oldindan qizdirilgan duxovkada pishiriladi. Pishirilgan xamir sovutilib, ustiga shakar kukuni sepiladi.

Kerakli masalliq:

20 gr. xamirturush, 0,5 st.

sut, 550 gr. un, 360 gr. shakar, tuz, 4 dona tuxum, 175 gr. saryog', vanilin, 750 gr. tvorog, 1 dona limon suvi va maydalangan po'sti, 750 gr. olcha, shakar kukuni.

MEVALI SALAT

Limonni issiq suvda yuvib, quritiladi. Po'sti arilib, suvi siqiladi. Ozgina po'stini uzun

chiziq shaklida kesib, bezash uchun olib qo'yiladi. Qolganini qirg'ichdan o'tkaziladi. Mevalar yuvilib, uncha katta bo'lmagan shaklda to'g'raladi. Smetana bilan qaymoq krem holiga kelguncha shakar bilan



Aziz dugonajonlar! Mana, sizni biz yozgi ta'tilga chiqib, mazza qilib dam olmoqdamiz. Men yozgi ta'tilni bekor o'tkazmaslik uchun turli-tuman meva va sabzavotlardan pishiriqlar va salatlar tayyorlayapman.

Bugun sizlarga olchali kulcha va mevali salatni qanday tayyorlash haqida maslahatlar bermoqchiman.

Sizlar ham onalaringiz ishdan qaytguncha o'zingiz tayyorlagan salat va kulchalar bilan dasturxonni bezatib qo'ysangiz, hamma sizdan mamnun bo'ladi.

ko'pirtirgich yordamida ko'pirtiriladi. So'ngra vanilin, limon suvi va limonni

barglari ajratilib olinadi. Yalpiz barglari va bezatishi uchun to'g'rab olib qo'yilgan limon po'sti bilan savatning ustki qismi bezatiladi.

Kerakli masalliq:

1 dona limon, 300 gr. mevali assorti (masalan, malina, o'rik, olcha, banan va hk.), 400 gr. o'ta yog'li smetana, 3 osh qoshiq qaymoq, vanilin, 2 shohcha yalpiz.

Yoqimli ishtaha!

Shahnoza OYDINOVA tayyorladi.

Ochil dasturxon

maydalangan po'sti solinadi. Yana ko'pirtirish davom ettiriladi. Tayyor bo'lgan krem idishlarga solinib, mevalar bilan bezatiladi va 30 daqiqaga muzlatgichga qo'yiladi.

Yalpiz shohchalari yuvilib,

«Tong yulduzi» jamoasi tahririyat xodimi
Olima NABIYEVAGA
qaynonasi Tursunoy ayaning
vafoti munosabati bilan chuqur
TA'ZIYA BILDIRADI.

Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at
litseyi tomonidan Isroilxo'jayev Jamshid
Yunusxo'jayevichga 1997 yilda berilgan
O'R - A, № 039923 raqamli shohodatnoma
yo'qolganligi tufayli
BEKOR QILINADI.

Bizning to'garak


QO'G'IRCHOG'IM

Ko'z tegmasin jajji qizim, derlar doim,
Bilaginga ko'zmunchoqlar taqib oyim.
Hamma senga havas qilsin bo'l muloyim,
Sochlaringni o'rib qo'yay kel Guloyim.

Men ham senga ko'ylak tikdim qo'g'irchog'im,
So'zlamaysan, jim turasan ovunchog'im.
Ko'zmunchoqlar taqib qo'yay yotar chog'im,
Sen yonimda bo'lsang ketadi charchog'im.

Mohinur HAYDAROVA,

S.Rahimov tumanidagi 323 - maktabning
3 - «G» sinf o'quvchisi.



YOMG'IR

Yomg'ir yog'di sharillab,
Hamma panaga qochdi.
Ko'kda qora bulutlar,
Rosa zahrini sochdi.

Mayli, yog'sin erinmay,
Men panada turmayman.
Qovoq uysa ham bulut,
Soyabonda yurmayman.

Nozima ORIPOVA,

GDGI qoshidagi
Chilonzor akademik
litseyining 7 - «YE» sinf
o'quvchisi.

QO'MSASH

Seni yana
qo'msamoqdaman,
Jonajonim, aziz dugonam.
Dardlarimni bilsang qaniydi,
Soya tashlab
turar yana g'am.
Bu azoblar tugarkin qachon,
G'amdan kuyib
ketdi-ku yurak.
Sinovlardan o'tarman omon,
Bu kunlarga
chidashim kerak.
Yetarmikan chidam
va bardosh,
Qayerdasan,
ey aziz sirdosh?
Kela qolgin,
dilga malham bo'l,
Do'stim, qo'yay
poyingga men bosh.

O'zDJTU qoshidagi akademik litsey talabasi.

GO'ZAL SHIRINIM

Sen timsolsan sevgi, hayotga,
Vafo degan shirin bayotga,
Ishq mulkini burkab ziyoga,
Orzuimsan, go'zal Shirinim!
Senga o'xshamoqlik
erur tilagim.
Yoding-la tepadi
mitti yuragim.
Sen o'zing mengada
jondan keragim.
Orzuimsan, go'zal Shirinim!
Nomingni qo'yamayman
aslo tilimdan.
Xotirang o'chmaydi
murg'ak dilimdan.
Timsoling izlayman
ona elimdan.
Orzuimsan, go'zal Shirinim!

Dildora ABZALOVA,

AQLLI ITLAR

Mening itim aqli,
Hatto gazeta o'qir.
Rustam do'sti Ravshanga,
Maqtangandek lof to'qir.

Ravshanning jahli chiqib,
Do'stiga so'z qotibdi:
«O'sha gazetalarni,
O'qib, itim sotibdi».

Durdona AVAZOVA,

Toshkent shahridagi
85 - maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.



ONA

Eng mehribon dunyoda,
Bu erur aziz ona.
Chaqqon, ildam har ishda,
O'zi misli farishta.

Go'zallikda tengi yo'q,
Bizlar uchun yagona.
Hayotimiz mazmuni-
Munis, mo'tabar ona.

Dilrabo QILICHEVA,

Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
22 - maktabning
6 - sinf o'quvchisi.

«MEHMON-MEHMON»

Biz maktabga ketganda,
Ukam uyda qoladi.
Zerikib onamlarga,
Yalinib-yolvoradi.

Deydi: «Keling oyijon,
O'ynaylik mehmon-mehmon.
Mashinamda ikkimiz,
Boraylik mehmon tomon».

Taqillatib eshikni,
Ukam poylab turadi.
Javob bo'lavermagach,
U yon, bu yon yuradi.

Onam javob qaytarar,
Ukamga sezdirmasdan:
«Uyda hech kim yo'q» deydi,
«Mehmon»ni bezdirmasdan.



Ana ko'rdingmi o'g'lim,
Kelmasak ham bo'larkan.
Yur endi, tez ketaylik,
Mezbon kechroq kelarkan.


Ukam der: «To'xtang oyi,
Kutaylik yana biroz.
Agar hech kim bo'lmasa,
Chiqmasdi uydan ovoz».

Hilola

EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar, Akmal
Ikromov tumanidagi
312 - maktab o'quvchisi.


Qatralar

DUNYO



U gohida shunchalar keng, bepoyon ko'rinadiki, bag'rida mangu qolging keladi. Gohida u shunchalar tor, bevafo bo'lib ketadiki, uning bag'riga sig'may ketasan.

ATIRGUL



Atirgulga boqib ko'zing quvnaydi, undan bir olam zavq olasan. Lekin ehtiyot bo'lmasang, tikani qo'lingga kirib, azob beradi. Insonlar orasida ham gullardek chiroyli, nafis, ammo tikandek azob berguvchilari uchrab turadi. Ulardan ehtiyot bo'lish lozim.

EZGULIK

Men daraxtlarga havas qilaman. Ular doimo ko'kka, quyoshga intilib o'sadilar. Maqsadlari faqat ezgulik. Qani endi barcha odamlar ham faqat ezgulikka intilib yashasalar.



GUL VA DIL

Dunyoda eng nozik narsa nimadir? Bu chamanda ochilgan bir to'p qizil gul. Nahot anglamaslar ayrim insonlar, Gullardan ham nozikroq bo'ladi-ku dil.

Gul sinsa, yashnaydi kelganda bahor, Parvarish qilinsa, gurkirar takror. Ammo dilga jarohat yetsa-chi, bilki, U qaytib tuzalmas kelsa ham bahor.

Feruzah AHMEDOVA,
Toshkent viloyati,
Toshkent tumanidagi
A.To'laganov nomli
7 - umumta'lim maktabining
9 - «A» sinf o'quvchisi.

BOSHNI ASRASH
ZARUR

O'qituvchi Zokirdan so'radi:
- Qani ayt-chi, fransuz qiroli Lyudovik XVIning (uning boshi 1793 yilgi inqilob paytida tanasidan judo qilingandi) taqdiri bizlarni nimaga undaydi?
Zokir:
- Boshni ehtiyot qilishga...



rogatka-da!

- Sovg'ani kimdan olding?

- Dadamdan.

- Dadang kim bo'lib ishlaydi?

- Oynasoz...

ENG KO'P
GAPIRADIGAN

Dadasi o'g'lidan so'radi:

- Ravshan, qani ayt-chi, hech kim tinglamasa ham gapiraveradigan odam kim?

- Bizning o'qituvchimiz-da, dada.

Ibrohim MURODULLAYEV,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi

24 - o'rta maktabning

4 - «G» sinf o'quvchisi.

FOYDALI SOVG'A

- Tug'ilgan kuningga nima sovg'a qilishdi?

- Har galgidek futbol to'pi bilan



Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 18 - maktabning

7 - «D» sinfida o'qiydigan tengdoshingiz Umida

Ahmedxo'jayeva

multfilmlarni juda sevib

tomosha qilar,

shuningdek, ertak

qahramonlarining rasmlarini

chizishga ham qiziqar ekan.



BUG'U BILAN SHER

Qalin o'rmonda bug'u yashar ekan. ekan, «qars» etib tishi sinib ketibdi. Kunlardan bir kuni u o'rmonda sayr Sher tishining og'rig'iga chidolmay qilib yursa, daraxtlar orasidan sher chiqib qolibdi. Sherning tishi og'riyotgan, buning ustiga judayam qorni och ekan. Sher semizgina, chiroyli bug'uni ko'ribdi-yu tishi og'riyotganini ham unutib, unga tashlanibdi. U endigina bug'uning oyog'idan tishlab olmoqchi bo'lgan



o'kirib yuboribdi, bug'u esa qochib qolibdi.

Bug'uning oyog'i salgina shiliniydi, xolos.

-Ajab bo'lsin! Birovni jonini og'ritaman desang, xoling shu bo'ladi, -debdi bug'u sherdan ancha nariga borgandan so'ng.

Bug'uning oyog'i bir haftada tuzalib ketibdi. Sherning bo'lsa singan tishi qaytib o'sib chiqmabdi. U haliyam o'rmonda tishsiz yashayotganmish.

«Tishim yo'qligini boshqa hayvonlar bilib qolishmasin», deb qo'rqqanidan hatto o'kirmay ham qo'yibdi.

«Tishim yo'qligini boshqa hayvonlar bilib qolishmasin», deb qo'rqqanidan hatto o'kirmay ham qo'yibdi.

«Tishim yo'qligini boshqa hayvonlar bilib qolishmasin», deb qo'rqqanidan hatto o'kirmay ham qo'yibdi.

«Tishim yo'qligini boshqa hayvonlar bilib qolishmasin», deb qo'rqqanidan hatto o'kirmay ham qo'yibdi.

«Tishim yo'qligini boshqa hayvonlar bilib qolishmasin», deb qo'rqqanidan hatto o'kirmay ham qo'yibdi.



Xurshid TOJIBOYEV,
7 yosh.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Z	A	X	O	Yu	O	L	A	H	F	A	R
R	X	U	M	N	B	A	J	O	X	U	R
I	R	U	B	J	Ye	M	X	N	S	I	Ya
D	D	B	O	A	Z	G	O	D	U	M	R
D	A	M	M	X	G	I	Sh	A	X	A	M
I	U	X	A	O	N	R	R	R	O	X	M
N	M	I	G	N	A	B	I	Sh	L	O	A
O	Sh	R	O	N	R	A	D	O	A	Sh	D
X	J	O	X	A	V	X	O	X	M	G	I
Sh	O	X	O	L	A	M	I	K	K	I	R

Hindistonda 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar saltanatining vakillari mana shu katakchalar ortiga berkitilgan. Ularni topishga harakat qiling.

Shahnoza OYDINOVA,
Respublika Nafis san'at litseyi o'quvchisi.

PARISHONXOTIR

Azizbekga dadasi uch kun oldin sirkka kirish uchun bilet olib kelgandi. U tomosha paytini intiqib kutdi. Mana, nihoyat Azizbek xush kayfiyat bilan hashamatli sirk binosiga kirib keldi. Ammo... u faqat shu yerga kelgandagina biletni uyda unutib qoldirganini bilib qoldi. Xullas, Azizbek shoshapisha yana iziga qaytdi. Uyi esa ancha olis: avval metroda, keyin tramvayda, undan tushgach trolleybusda va yana uch bekat avtobusda borishi kerak. Parishonxotir Azizbek bu transportlarning har biriga 70 so'mdan to'lagan bo'lsa, uyiga borib kelishi uchun jami necha so'm sarflagan?

Uchqunbek ODASHBOYEV,
Toshkent tumanidagi
30 - maktabning 4 - sinf o'quvchisi.

QIZIQARLI SAVOLLAR

1. Shuncha suv unga yana shuncha suvni qo'shsa nima bo'ladi?

2. Qishda ovchi ovga chiqdi. Yo'lida ikkita ayiqni uchratdi. Ularni otmoqchi bo'ldi, biroq o'qdonida bor-yo'g'i bitta o'q qolgan ekan. Ovchi nima qilishi kerak?

Mahmudjon AZIMOV,
G'afur G'ulom
nomidagi
169 - maktabning
6 - «G» sinf
o'quvchisi.



Ota yurtning - oltin beshligi
TONG
Yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nuxxada ofset usulida bosildi.
Korxonada manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-661
Gazetani
Muhabbat MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08